



FAZEOLOGIK LISONIY MANZARADA "QO'L" KOMPLEMENTINING METAFORIK INTERPRETATSIYASI VA RAMZIY MA'NOLARI

Umarjonova Go'zal Muxtorovna,

Qo'qon universiteti,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 54

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1496>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/
KEYWORDS

fraseologiya, idioma, somatizm, komponent, semantika, lisoniy manzara, metafora, "qo'l" komponenti, kognitiv lingvistika

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada somatik frazeologik birliklar (SFB) tizimida "qo'l" (Hand) komplementining tutgan o'rni, uning lingvistik xususiyatlari va kognitiv modellari nemis, rus va o'zbek tillari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson tana a'zolari nomlari bilan bog'liq iboralarning lisoniy manzaradagi iyerarxiyasi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Xususan, "qo'l" komplementining inson faoliyati, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlaridagi metaforik interpretatsiyasi hamda ramziy ma'nolari ochib beriladi. Maqolada somatizmlarning nafaqat milliy-madaniy xususiyatlari, balki ularning umuminsoniy (universal) xarakteri hamda "Qutadgu bilig" asari misolida tarixiy ildizlari tahlilga tortilgan.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda inson omili va til bog'liqligini o'rganuvchi antropotsentrik yondashuv ustuvor yo'nalishga aylandi. Bu jarayonda inson tana a'zolari nomlaridan tashkil topgan somatik frazeologik birliklar alohida o'rin tutadi, chunki ular frazeologizmlarning eng qadimiy va eng ko'p ishlatiladigan qatlamini tashkil etadi. Inson o'z fitratidan kelib chiqib, dunyoni anglash va uni verbal ifodalashda metaforalardan keng foydalanadi. "Qo'l" komplementli frazeologizmlarning tadqiqi quyidagi sabablarga ko'ra dolzarb hisoblanadi.

A.V.Blyum tadqiqotlariga ko'ra, "qo'l" komponenti (13,42%) barcha boshqa somatik a'zolariga nisbatan eng yuqori qo'llanilish chastotasiga ega. Bu ko'rsatkich o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, "Qutadgu bilig" asarida ham o'z tasdig'ini topgan (130 dan ortiq ibora).

Boshqa sezgi a'zolari (ko'z, quloq) tashqi muhitdan axborot qabul qiluvchi passiv funksiyani bajarsa, qo'l tabiatga faol aralashuvchi, yangi borliqni yaratuvchi "faol" organdir. Nemis olimi Xans Shemann ta'kidlaganidek, qo'l insonni boshqa jonotlardan ajratib turuvchi, dunyoni amaliy o'zgartiruvchi asosiy vositadir.

Qo'l nafaqat jismoniy harakat, balki jamiyatda davlat, egalik, hokimiyat, adolat va diniy tushunchalarda najot hamda marhamat ramzi sifatida xizmat qiladi. Nemis, rus va o'zbek tillari turlicha til oilalariga mansub bo'lsa-da, ulardagi "qo'l" komplementli iboralarning semantik maydonida mushtaraklik mavjud. Bu esa insoniyatning kognitiv va emotsional tajribasidagi umumiylikni tadqiq etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada "qo'l" komplementining frazeologik lisoniy manzaradagi o'rni, uning dualistik tabiati (o'ng va chap qo'l tushunchalari) hamda turli tillardagi semantik guruhlar tahlil qilinishi til va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolaning adabiyotlar tahlili bir necha muhim ilmiy yo'nalishlar va maktablar kesimida olib borilgan bo'lib, mavzuni ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur asoslashga xizmat qilgan. Tadqiqotda somatik frazeologik birliklarni (SFB) o'rganishning nazariy poydevori sifatida F.A.Vakkning qarashlari keltirilgan. Olim SFBlarni frazeologizmlarning eng faol va eng qadimiy qatlamini sifatida baholaydi. Ushbu yo'nalishdagi statistik tahlillar esa A.V.Blyumning 529 ta somatik birlik ustida olib borgan izlanishlariga tayanadi. Blyumning xulosalari "qo'l" komponenti (13,42%) boshqa barcha a'zolariga nisbatan eng yuqori chastotaga ega ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab bergan.

Maqolada inson omili va til bog'liqligi nemis olimi Xans Shemannning antropotsentrik yondashuvi orqali ochib beriladi. Shemann qo'lni shunchaki tana a'zosi emas, balki insonni boshqa jonotlardan ajratib turuvchi, dunyoni amaliy o'zgartiruvchi asosiy vosita deb hisoblaydi. Shuningdek, frazeologizmlarning semantik tasnifi X.Burgerning idiomatizm darajasiga ko'ra guruhlash tizimidan foydalanilgan.

Rus tili materiallari tahlilida I.A.Turkulesning tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi. U "qo'l" komplementli iboralarni inson faoliyati va ruhiyatining turli qirralari, xususan, mehnat, hissiyot, jazo, mulk va mas'uliyat kabi oltita asosiy semantik guruhga ajratgan. Bu esa tillararo qiyoslovda mantiqiy izchillikni ta'minlagan.

Maqolaning o'zbek tilshunosligiga oid qismi Z.Ya.Sodiqovning Yusuf Xos Hojibning "Qutadgu bilig" asari bo'yicha olib borgan ilmiy ishlari bilan boyitilgan. Sodiqov asardagi 130 dan ortiq qo'l bilan bog'liq iboralarni aniqlab, ularni davlat, egalik va hokimiyat timsoli sifatida talqin qiladi. Bu ma'lumotlar somatizmlarning tarixiy ildizlari va milliy o'ziga xosligini yoritishga xizmat qiladi.

Qo'lning ramziy ma'nolari J.Kuper va U.Beker kabi olimlarning simvollar leksikonlari asosida izohlangan. Ular qo'lni faoliyat va adolat ramzi bo'lishi bilan birga, diniy tushunchalarda najot va marhamat vositachisi ekanligini ham qayd etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, statistik tahlil va semantik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Tahlil obykti sifatida nemis, rus va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar olindi. Tadqiqot jarayonida A.V.Blyumning 529 ta SFB bo'yicha statistik tahlili, X.Burgerning semantik tasnifi hamda I.A.Turkulesning rus tilidagi somatizmlar bo'yicha guruhlashtirish tamoyillariga tayanildi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadgu bilig" asaridagi somatizmlar tarixiy-qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan statistik va semantik tahlillar quyidagi natijalarni ko'rsatdi: A.V.Blyum tadqiqotiga ko'ra, eng ko'p ishlatiladigan somatik birliklar orasida qo'l (71 ta, 13,42%) yetakchilik qiladi. Rus tili SFBlari tarkibida eng ko'p uchraydigan 17 ta nomdan 8 tasi, nemis tillarida esa 11 tasi somatizmlardir. O'zbek tilida ushbu ko'rsatkich 9 tani tashkil etadi: bosh, burun, elka, oyoq, ko'z, til, yurak, qon va qo'l. Tadqiqot doirasida o'rganilgan tillardagi eng ko'p uchraydigan somatizmlar miqdori:

Til nomi	Somatizmlar soni	Misollar
Nemis tili	11 ta	Hand, Mund, Bein, Nase, Ohr, Kopf, Herz, Auge, Fuß, Hals
Rus tili	8 ta	Ruka, golova, glaz va boshqalar

Til nomi	Somatizmlar soni	Misollar
O'zbek tili	9 ta	Bosh, burun, elka, oyoq, ko'z, til, yurak, qon, qo'l

“Qutadgu bilig” asarida qo'l bilan bog'liq iboralar 130 dan ortiq bo'lib, u boshqa tana a'zolariga (yuz – 80, ko'z – 80, bosh – 50) nisbatan eng yuqori chastotaga ega:

Somatizm komponenti	Iboralar soni
Qo'l	130 dan ortiq
Yuz	80 dan ortiq
Ko'z	80 ga yaqin
Bosh	50 dan ortiq
Til	20 ga yaqin

“Hand”-“qo'l” odatda faoliyat, kuch va adolat ramzi sifatida qaraladi. Shuningdek, u dinda najot, kuch va marhamat uchun vositachi yoki himoya ramzi hisoblanadi.

Muhokama. Somatik fraseologik birliklarning (SFB) lingvistik tahlili shuni ko'rsatadiki, tana a'zolari nomlari tilda shunchaki biologik tushunchalarni ifodalaymaydi, balki insonning dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantiruvchi kognitiv model vazifasini o'taydi.

Rus tili FBlar tarkibida eng ko'p uchraydigan o'n ettita nomlardan sakkiztasi, nemis FBlarida esa o'n ettita otdan o'n bittasi: Hand, Mund, Bein, Nase, Ohr, Kopf, Herz, Auge, Fuß, Hals¹ (qo'l, og'iz, oyoq, burun, quloq, bosh, Yurak, ko'z, bo'yin); o'zbek tilida o'n ettita otlardan to'qqiztasi: bosh, burun, elka, oyoq, ko'z, til, yurak, qon, qo'l; somatizmlarga mos keladi. Biroz kamroq uchraydigan komponentlar quyidagilardir: og'iz, barmoq, yuz, soch, tish, Zunge, Blut, Rücken, Zahn (til, qon, bel, tish).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha o'rganilgan tillarda (nemis, rus, o'zbek) somatizmlarning qo'llanilishida o'ziga xos iyerarxiya mavjud. A.V.Blyum o'z tadqiqotida, frazeologik birliklarda tana qismlarining qaysi biri qanday darajada qo'llanilishini tahlil qilgan va ushbu frazeologik birliklarni ham tizimli, ham mazmunan ochib bergan. Olim 529 somatik frazeologik birlikni tahlili shuni isbotlaydiki, "qo'l" komponenti (13,42%) boshqa barcha a'zolaridan ustun turadi. Eng ko'p ishlatiladigan somatik birliklar qo'l (71 ta, 13,42%), bosh (49 ta, 9,26%), ko'z (49 ta, 9%), yuz (34 ta, 6,4%), oyoq (28 ta, 5,2%), burun (24 ta, 4,4%), barmoqligini (21 ta, 3,9%) aniqlagan. Boshqa somatik frazeologik birliklar juda kam ishlatilib, "jami namunaviy o'lchamlarning ulushi 3% dan oshmaydi"² deb ta'kidlagan A.V.Blyum.

Bu holat o'zbek mumtoz adabiyoti durdonasi bo'lmish “Qutadgu bilig” asarida ham o'z tasdig'ini topgan: qo'l bilan bog'liq iboralar (130 dan ortiq) yuz, ko'z va bosh komponentlariga nisbatan sezilarli darajada ko'pdir. Germanist Z.YA.Sadiqov o'z tadqiqotida Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu bilig” asarida 132 ta iboradan, jumladan somatizmlardan mohirona foydalanganligi haqida alohida ta'kidlab o'tgan. Uning aniqlashicha: “Dostondagi ana Shunday iboralarni ko'zdan kechirilganda, ularning tarkibi 130 dan ortig'i – qo'l, 80 dan ortig'i – yuz, 80 ga yaqini – ko'z, 50 dan ortig'i – bosh, 20 ga yaqini – til va boshqa Shu kabi tana a'zolari vositasida yaratilganligi aniqlandi”³. Bu miqdoriy ustunlik inson hayotida qo'lning nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy-huquqiy (egallik, hokimiyat, kuch) ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. “Qutadgu bilig”da yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, eng ko'p qo'llanilgan birikmalar ob'ektida asosan «qo'l» yotadi. Qo'lning har xil shaklda va ko'rinishdagi holati turli xalqlarda o'ziga xos ma'no ifoda

anglatishi qiziqarlidir. Qo'lning muloqot vositasi sifatida qo'llanilishining qadimiyligini uning jamiyatda davlat, egalik timsoli sifatida ishlatilganligida ham ko'rishimiz mumkin. *Hammasi xudoning qo'lida, podshoning qo'li uzun* kabi iboralar bunga misol bo'la oladi” deydi Z.Sadiqov⁴. Z.Sadiqov ta'kidlaganidek, qo'l – bu jamiyatda davlat va egalik timsolidir. “Podshoning qo'li uzun” kabi iboralar hokimiyatning qamrov doirasi va kuchini metaforik ifodalaydi.

Inson avvalombor o'z fitrati⁵dan kelib chiqib, dunyoni til orqali verbal ifodalashga jarayonida, albatda tasvirlar va metaforalar yordamidan foydalanadi. Nemis tishunos olimi Xans Shemann antropotsentrik yondashuviga ko'ra, qo'l – insonni boshqa jonotlardan ajratib turuvchi asosiy vositadir⁶. Inson nutq qobiliyatiga ega bo'lishdan oldin, tasvirlash qobiliyatiga ega bo'lgan. Eng muhimi, u ishlaydigan qo'llarni ta'riflaydi. Turli tana funksiyalari, ayniqsa, qo'llar yordamida atrof-muhitni tushunish va anglash mumkin bo'ladi. Chaqaloq rivojlanishi bo'yicha kuzatuv ishlari bilan ma'lum bo'lishicha, chaqaloqlar o'z muhitini qo'llari bilan tushunmagan, ular ko'pincha, nutqi rivojlanishida orqada qolib ketganini ko'rsatadi. Tasvirlarda “o'ylash” hali ham bugungi tilning muhim qismidir. Xans Shemann “ibtido” va “ma'no” orasidagi munosabatlarni namuna sifatida ifodalab, klassik ma'no va leksikallashtirilgan metafora lingvistik tasvirlar bog'liq⁷ deydi u. Uning tadqiqotida ma'naviy qiyofadagi o'zgarishni metaforik ifoda orqali undan olingan ma'noga qayta tiklashga urinish ko'riladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, boshqa sezgi organlari (ko'z, quloq, burun) asosan tashqi muhitdan axborot qabul qiluvchi passiv funksiyani bajarsa, qo'llar tabiatga faol aralashuvchi, yangi borliqni yaratuvchi va shakllantiruvchi “faol” organdir. Shu sababli, frazeologik tizimda qo'l bilan bog'liq iboralar insonning mehnat faoliyati, mahorati va amaliy natijalarini ifodalashda markaziy o'rinni tutadi.

Qo'l ayniqsa metaforaga juda xos va mazmunga boy hisoblanadi, chunki qo'llar faol, harakat qiluvchi insonning eng muhim organi va ular haqida juda ko'p gapirsa arziydi⁸. Tana qismlarining nomlarini majoziy ma'noda ishlatib, taqqoslash, metafora, iboralar, atamalar orqali odamlar o'z fikrlarini yanada to'liqroq etkazish yoki aytilgan narsalar haqida ko'proq taassurot qoldirishga intiladi. Harakatlar bilan har qanday his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi dastlab fiziologik harakat ekanligini anglatadi. Mimika – bu shaxsning yuz ifodasini o'zgartirishdir. Bu bizning barcha universal his-tuyg'ularimizni ifodalashga imkon beradi: xafagarchilik, baxt, jirkandish, g'azab, quvonch, ajablanish, qo'rquv va nafrat. Tana qismlarining anatomik ma'nosi talaygina. Qo'l – insonning yuqori qismidagi anatomik jihatdan tana a'zosi emas, balki insonni boshqa jonotlardan ajratib turadigan vositadir.

¹ Рахштайн А.Д. “Сопоставительный анализ немецкого и русского фразеологии”. - Москва. Высшая школа, 1980.

² Блюм А. Семантические особенности соматической фразеологии. - Москва. АСТ-пресс, 2000. - С. 20.

³ Садиқов. З.Я. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутағду билиг” асарининг немисча ва инглизча таржималари қиёсий-қоғиштира таҳлили. Фил.ф.доктори, дисс., - Ташкент, 2020. – Б. 98.

⁴ Садиқов. З.Я. Ўша асар. – Б. 204.

⁵ Умарходжаев Э.М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. - Тошкент, 2016. 166-бет.

⁶ Schemann Hans. „Idiomatik und Anthropologie: Bild und Bedeutung in lingvistischer, sprachgenetischer Perspektive“. Olms, 2000. – S. 35.

⁷ Schemann Hans. Ўша асар, – S. 36.

⁸ Schemann Hans. Ўша асар.

Qo'l – bu insonning holati, kayfiyati va munosabatlarining namoyon qilib, ayniqsa, chog'ishtirilayotgan ikki turli til tizimlarida qo'l, bosh va ko'z komponentli SFBlar nutq faoliyatining birinchi o'rnida turadi. Bu holat tillarning ichki xususiyati orqali tushuntirilishi mumkin emas. Ushbu tarkibiy qismlar bevosita sezgi (ko'z) va mantiqiy (bosh) ma'lumotlarga, Shuningdek, uning haqiqati - amaliyot (qo'l) o'lchovidir⁹. Tishunos Xans Shemann imo-ishoralari tezkor ifodasi sifatida jest va mimikalar ichki haqiqatga ega bo'lib, bu ham qo'l va ko'z atrofidagi iboralar o'tkaziladi. Ular ayniqsa, tasviriy va ko'p qirrali bo'lib, ular inson tilining faoliyati va uni etkazish mexanizmlari haqida muhim ma'lumot bergan¹⁰. "Hand"- "qo'l" ga odatda faoliyat, kuch va adolat ramzi sifatida qaraladi¹¹. J.Kuperning izohlashicha, qo'llarimizdan "talab qilish, va'da berish, chaqirish, xayrixox bo'lish, tahdid qilish, rad etish, ifoda etish, so'rash yoki yo'q qilish" uchun foydalanamiz¹². Shu bilan birga, biz ularni "quvonch, qayg'u, ikkilanmaslik, tavba qilish, o'lchov, miqdor, raqam va vaqt", Shuningdek, "rag'batlantirish, ta'qiqlash, tasdiqlash, hayrat va sharmandalik" ni anglatish uchun ham ishlatamiz.

Bugungi kunda ham qo'l muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, "qo'l siqish" bilan bir qatorda, qo'l qonuniy ramz hisoblanadi, ammo dinda, odatda, najot, kuch va marhamat uchun vositachi yoki himoya ramzidir¹³. "Xulosa qilish kerakki, qo'l hali ham kuch, faollik, onga etkazish, himoya va adolat bilan bog'liq"¹⁴. "Hand"- "qo'l" komponentli somatik frazeologizmlar tahlil qilar ekanmiz, ularning turli tasnifiga e'tibor berishimiz lozimdir. Eng keng tarqalgan tasniflarimiz asosan semantik, sintaktik, grammatik va morfologik hamda paradigmatic mezonlar va ularning kombinatsiyasiga asoslanadi.

Nemis olimlari frazeologiyaning SFBlarining semantik tasnif bo'yicha bir necha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Masalan, X.Burger, idiomatizm darajasiga ko'ra semantik bo'linishni afzal ko'radi, uni idioma (idiomatik iboralar), qisman idiomlar (qisman idiomatik iboralar) va zaif yoki zaif bo'lmagan idiomatik birikmalarga ajratadi¹⁵. Nemis olimlari insonlarning xarakter-xususiyatlarini e'tiborga olgan holda somatik frazeologik birliklarni quyidagi semantik guruhlariga ajratganlar: a) birlashish: nikoh, to'y, ittifoq, do'stlik, sadoqat; b) salbiy uyatli xolatni ifodalash: sharmandali, uyat, dahshatli; sog'lik, hokimiyatga etkazish; s) ochiqlik: erkin fikrlilik, saxiylik, adolat; d) siqilish: tahdid, tajovuzkorlik; e) ma'suliyat sezish: o'ylash, g'amxo'rlik qilish; f) yomon ishga daxlsizligini ko'rsatish: aybsizlik, tozalash, aybdorlikni rad etish.

"Bundan tashqari, o'ng qo'l ko'pincha kuch va aqlga asoslangan tomon sifatida talqin qilinadi, chap qo'l esa ko'pincha o'g'rilik va firibgarlik bilan bog'liq bo'lib, qorong'u, ongsiz tomon deb hisoblanadi"¹⁶.

"Qo'llar inson vositasidir. U avvalo yashashga imkoniyat yaratadi. Ular faqat faol vosita bo'lib, boshqa barcha organlar esa passiv funksiyaga ega. Ko'zlar o'zlarining ko'rish maydonida bo'lgan narsalarni qamraydi. Quloqlar tashqaridan kelgan ovozni qabul qiladi va ongga

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Becker U. Lexikon der Symbole. – Freiburg, 2008. – S. 121.
2. Blyum A. Semanticheskie osobennosti somaticheskoy frazeologii. – Moskva: AST-press, 2000. – S. 20.
3. Burger H. Idiomatik des Deutschen. – Tübingen, 1973. – S. 145.
4. Cooper J.C. Illustriertes Lexikon der traditionelle Symbole. – Wiesbaden, 1986. – S. 72.
5. Luque Nadal. Phraseology and Culture. – 2012. – 121-bet.

uzatadi. Burun nafas oladi. Lekin qo'llar yaratadi... Ular yangi narsalar hosil qiladi, atrof-muhitni o'zimizdan tashqaridagi barcha narsalarni shakllantiradi, ular tajovuzkor, ular tabiatga va hayotga aralashdilar. Va har ikkala qo'l juftligi ham o'zlashtirish va shakllantirishning o'ziga xos uslubiga egadir..."¹⁷. I.A.Turkules "ruka" komponentli rus tilidagi somatik frazeologizmlarni quyidagi guruhlariga ajratadi: 1. Ish, mehnat va ishchilarni ifodalovchi; 2. Hissiyot, his-tuyg'u; a) Ikkilanish, xayajonlanish; b) Xafachilik, g'aflatda qolish, g'am; v) Xursandchilik; g) Hayrat, taajjub; d) Qo'rquv, dovyuraklik, jasurlik; e) Beg'amlik, xotirjamlikni ifodalovchi; 3. Jazo olish/olmaslikni ifodalovchi; 4. Mulk, kuch (Olish va berish bilan bog'liq harakatlar); 5. Harakat sodir bo'lishi/ bo'lmashlikni ifodalovchi; 6. Mualliflik, ma'suliyat kabilarni ifodalovchi¹⁸.

"Hand"- "qo'l" komponentli somatik frazeologik birliklarni xar xil til tizimlarida chog'ishtirma semantik tahlil qilish va ikkala tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash, ularni umumiy xamda farqli jihatlarini yoritish imkonini yaratib beradi. Shuning bilan, german tillar guruhiga mansub nemis tili hamda turkiy tillarga mansub o'zbek tili somatik frazeologik birliklarning bir-biri bilan ekvivalentlik xususiyati bilan bir qator ekvivalentsiz somatizmlar mavjudligi tilning ichki tizimini namoyon etib beradi.

Ushbu tadqiqot ishimizda biz «Hand»-«qo'l» komponentli somatik frazeologizmlarning struktur tahliliga alohida e'tibor qaratdik va undan tashqari, "Hand"-«qo'l» komponentli SFBlarining ideografik tasnifini ifodalab, ularni mazmunij jihatdan bir necha guruhlariga ajratdik. Tadqiqotimizning navbatdagi boblarida bu haqida alohida to'xtalib o'tamiz.

Xulosa. "Hand" – "qo'l" komponenti frazeologik lisoniy manzarada insonning amaliy, ruhiy va ijtimoiy faoliyatini birlashtiruvchi eng muhim lingvistik metanomiyadir. Qo'l komponentli SFBlarining semantik ko'lami juda keng bo'lib, u inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi: a) Dualistik tabiat: Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "o'ng" va "chap" qo'l tushunchalari tillarda qutbli ma'nolarni tashiydi. O'ng qo'l – adolat, aql va poklik ramzi bo'lsa, chap qo'l firibgarlik va qorong'u (ong osti) niyatlar bilan bog'lanadi; b) Ruhiy-emotsional holat: I.A.Turkules va X.Burger tasniflaridan ko'rinadiki, qo'l harakatlari (jestlar) orqali insonning ichki kechinmalari (hayrat, qo'rquv, tavba, saxiylik) nutqdan ko'ra tezroq va ta'sirliroq ifodalanadi. Masalan, "qo'lini yuvish" (aybsizlikni radd etish) yoki "qo'li ochiqlik" (saxovat) kabi iboralar universal madaniy kodlardir. Nemis, rus va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, "qo'l" komponentli frazeologizmlarning semantik maydoni mushtarakdir. Bu esa somatik frazeologiyaning nafaqat milliy, balki umuminsoniy (universal) xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, har bir tilning ichki tizimidagi o'ziga xos ekvivalentsiz birliklar o'sha xalqning turmush tarzi va tarixiy tajribasini (masalan, o'zbek tilidagi "qo'l uchida bajarish" kabi o'ziga xosliklar) aks ettiradi.

6. Mordokovich M. K voprosu o semanticheskix frazeologizmov. Voprosi semantika frazeologicheskix yedinic slavyanskix, germanskix i romanskiy yazikax. – Novgorod, 1972.

7. Raxshtayn A.D. Sopostavitelnyy analiz nemeckogo i russkogo frazeologii. – Moskva: Visshaya shkola, 1980.

8. Sodiqov Z.Ya. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining nemischa va inglizcha tarjimalari qiyosiy-chog'ishtirma tahlili: Filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 2020. – 98-204-bet.

9. Umarxo'jayev E.M. Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug'at. – Toshkent, 2016. – 166-bet.

⁹ Мордкович М. "К вопросу о семантических фразеологизмах. Вопросы семантика фразеологических единиц славянских, германских и романских языках". - Новгород, 1972.

¹⁰ Schemann Hans. Уша асар. - S. 37.

¹¹ Becker U. Lexikon der Symbole. - Freiburg, 2008: - S. 121.

¹² Cooper J.C. Illustriertes Lexikon der traditionelle Symbole, - Wiesbaden. 1986: - S. 72.

¹³ Becker. Уша асар, - S. 121.

¹⁴ Cooper J.C. Уша асар, - S. 72.

¹⁵ Burger H. Idiomatik des Deutschen. Tübingen, 1973. – S. 145.

¹⁶ Luque Nadal, Phraseology and Culture. – 2012: 121-6et.

¹⁷ Becker U. Уша асар. - S. – 72.

¹⁸ Теркулец И.А. Фразеологизмы с компонентами-соматизмами в художественных текстах М.А.Шолохова. Дисс.на соискание учён.степ.канд.наук. - Волгоград, 2015.